

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA YURIDIK TA'LIMNI
MODERNIZATSIYA QILISH: LEGALTECH KOMPETENSIYALARINI
SHAKLLANTIRISH**

Nargizaxon Majidova

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi

nargizmajidova79@gmail.com +99890-137-27-10

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17565800>

Annotatsiya. Bugungi XXI asr zamonaviy texnologiyalar va raqamli transformatsiya davri ekan, jamiyat barcha sohalarda yangi yondashuvlar va kompetensiyalarni talab qiladi.

Yuridik ta'lim ham ushbu jarayondan chetda qolmay, zamonaviy talablarga mos ravishda modernizatsiya qilinishi zarur. Ushbu maqolada yuridik ta'limni raqamli transformatsiya sharoitida takomillashtirish, LegalTech kompetensiyalarini shakllantirish va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada xalqaro tajriba ham keng o'rganilib, ushbu jarayonda qanday muammolar bo'lishi mumkinligi va bularga yechimlar taklif qilinadi. Tadqiqot natijalari esa, yuridik fakultetlarda AI va LegalTech kurslarini kengaytirish, amaliy va nazariy bilimlarni uyg'unlashtirish orqali bitiruvchilarda raqamli savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirish imkoniyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Yuridik ta'lim, raqamli transformatsiya, LegalTech, sun'iy intellekt, raqamli kompetensiyalar, ta'lim modernizatsiyasi, xalqaro hamkorlik, AI/LegalTech kurslari, elektron sud tizimi, zamonaviy texnologiyalar, Raqamli O'zbekiston.

**MODERNIZATION OF LEGAL EDUCATION IN THE CONTEXT OF DIGITAL
TRANSFORMATION: DEVELOPING LEGALTECH COMPETENCIES**

Abstract. In the 21st century, modern technologies and digital transformation shape society and require new approaches and competencies across all sectors. Legal education is no exception and must be modernized to meet contemporary demands. This article analyzes the improvement of legal education under digital transformation, the development of LegalTech competencies, and the organization of practical training. International experiences are also examined, highlighting potential challenges and proposing solutions. The study results demonstrate that expanding AI and LegalTech courses in law faculties and integrating theoretical and practical knowledge can enhance digital literacy skills among graduates.

Keywords: Legal education, digital transformation, LegalTech, artificial intelligence, digital competencies, education modernization, international cooperation, AI/LegalTech courses, electronic court system, modern technologies, Digital Uzbekistan.

**МОДЕРНИЗАЦИЯ ЮРИДИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ
ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ В
ОБЛАСТИ LEGALTECH**

Аннотация. XXI век характеризуется быстрым развитием современных технологий и цифровой трансформацией, требующей новых подходов и компетенций во всех сферах общества. Юридическое образование не является исключением и должно модернизироваться в соответствии с современными требованиями.

В статье анализируется совершенствование юридического образования в условиях цифровой трансформации, формирование компетенций в области LegalTech и организация практических занятий. Также рассматривается международный опыт, выявляются возможные проблемы и предлагаются решения. Результаты исследования показывают, что расширение курсов по AI и LegalTech в юридических факультетах и интеграция теоретических и практических знаний способствует развитию цифровой грамотности у выпускников.

Ключевые слова: Юридическое образование, цифровая трансформация, LegalTech, искусственный интеллект, цифровые компетенции, модернизация образования, международное сотрудничество, курсы AI/LegalTech, электронная судебная система, современные технологии, Цифровой Узбекистан.

Kirish

Bugungi kunda dunyo keng miqyosda raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Iqtisodiyotdan tortib ta'lim va sog'liqni saqlashgacha, sud tizimidan tortib davlat boshqaruvigacha bo'lgan barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon jamiyatning barcha qatlamlariga ta'sir ko'rsatib, yangi kompetensiyalar va yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu talablar esa albatta yuridik sohani ham chetlab o'tgani yo'q. Endi huquqshunoslar nafaqat qonunlarni bilishlari, balki raqamli muhitda ishlash, huquqiy axborotni tahlil qilish, LegalTech vositalarini qo'llashni ham o'rganishlari zarur. Shu sababli, yuridik ta'limni modernizatsiya qilish, ya'ni uni zamon talablari asosida yangilash va raqamli kompetensiyalar bilan boyitish dolzarb masalaga aylandi.

Raqamli transformatsiya bu — tashkilotlar va jamiyat sohalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali jarayonlarni, xizmatlarni va ish faoliyatini tubdan o'zgartirish jarayoni. Yuridik ta'lim nuqtai nazaridan raqamli transformatsiya bitiruvchilardan nafaqat nazariy bilim, balki texnologik va amaliy kompetensiyalarni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, **LegalTech** tushunchasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. LegalTech — bu yuridik xizmatlarni ko'rsatish va huquqiy jarayonlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqarish uchun raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishdir.

Lekin shu bilan birga, yuridik ta'limda LegalTech bilim va ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmagani, o'quv dasturlarining zamonaviy talablar bilan mos kelmasligi asosiy ilmiy muammo sifatida belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi — yuridik ta'limni raqamli transformatsiya sharoitiga moslashtirish bo'lib, uning asosiy vazifalari raqamli transformatsiyaning yuridik ta'limga ta'sirini o'rganish, LegalTech kompetensiyalarining mazmuni va ahamiyatini aniqlash, mahalliy ta'lim tizimidagi mavjud bo'shliqlarni tahlil qilish, xorijiy tajribalar bilan taqqoslash va raqamli texnologiyalar asosida metodik takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Shu bois, mazkur tadqiqot yuridik ta'limda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini ilmiy asosda o'rganish va amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Sun'iy intellekt (SI)ning huquq sohasiga kirib kelishi yuridik ta'lim va amaliyot oldida yangi masalalarni qo'yimoqda.

Rustam Ruzievning “The Impact of Artificial Intelligence on the Formation and the Development of the Law”¹ nomli maqolasida aynan shu o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Muallif beshta asosiy muammoni ko‘rsatadi: algoritmik kamsitishlar, SI mahsulotlarining intellektual mulk huquqi, javobgarlikni belgilash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va axloqiy masalalar.

Ruzievning fikricha, SI bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tartibga solish nafaqat qonunchilikni yangilashni, balki huquqshunoslarni zamonaviy kompetensiyalar bilan ta’minlashni ham talab qiladi. Bu borada yuridik ta’limda ma’lumotlarni himoya qilish, raqamli intellektual mulk va LegalTech kompetensiyalariga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Xalqaro tadqiqotlarga to’xtaladigan bo’lsak, Yuliya Kharitonova va Larisa Sannikovaning “Digital Transformation of Legal Education”² nomli tadqiqoti yuridik ta’lim tizimini raqamli transformatsiya sharoitida modernizatsiya qilish muammolarini o’rganishga bag’ishlangan bo’lib, aynan yuridik oliy ta’limda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va LegalTech yo’nalishlarini tatbiq etish masalasini ko’rib chiqadi. Mualliflar shuni ta’kidlaydiki, yuridik ta’limda “Digital Competence of Lawyers” shakllantirish uchun maxsus ramka — turli ta’lim darajalari (bakalavriyat, magistratura) va huquqiy soha yo’nalishlari bo’yicha zarur raqamli ko’nikmalarni shakllantirish talab etiladi. Maqolada, misol uchun, blokcheyn, kriptoaaktivlar, smart-kontraktlar va elektron huquqiy xizmatlar kabi yangi texnologiyalar huquqshunoslar faoliyatida muhim o’rin olishi ta’kidlanadi, va shu bois ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish lozimligi ko’rsatib o’tiladi.

Ushbu tadqiqot yuridik ta’lim sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarini o’rganishga bag’ishlanib, uning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi asosan ikki yo’nalishga tayanadi: nazariy tahlil va amaliy-analitik yondashuv.

Nazariy tahlil jarayonida yuridik ta’limda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish masalasiga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro tashkilotlar (UNESCO) hisobotlari hamda global ekspertlarning qarashlari tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali huquqiy ta’limda LegalTech yechimlaridan foydalanishning nazariy modellariga ilmiy yondashuv shakllantirildi.

Amaliy-analitik bosqichda ochiq ma’lumotlar va real tajribalar asosida O‘zbekiston va xorijiy ta’lim muassasalarida yuridik ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish holati o’rganildi. Taqqoslash metodi orqali rivojlangan mamlakatlardagi ilg’or tajribalar bilan solishtirish olib borildi. Bundan tashqari, yuridik ta’limga doir davlat ta’lim standartlari, o’quv rejalari va me’yoriy-huquqiy hujjatlar kontent-analiz asosida ko’rib chiqildi. Tadqiqotning obyekti — O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda yuridik ta’limni zamonaviylashtirishda raqamli texnologiyalar va LegalTech vositalaridan foydalanish amaliyoti bo’lsa, predmeti — huquqiy ta’lim jarayonida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari hamda o’quv dasturlariga LegalTech yechimlarini kiritish mexanizmlaridir.

¹Ruziyev.R.J. *The Impact of Artificial Intelligence on the Formation and the Development of the Law* //Material of international conference. — Tashkent: Tashkent State University of Law, 2023. 23-25-b https://tsul.uz/media/jmnknkrxfbf06_11_12_23_10.pdf

² Yuliya Kharitonova, Larisa Sannikova. Digital Transformation of Legal Education // *Medicine, Law & Society*. — 2022. <https://doi.org/10.18690/mls.15.1.47-72.2022>

Mazkur tadqiqot ishi nima uchun yuridik ta'limni modernizatsiya qilish zarurligini ochib beradi va bunga doir yechimlarni ilgari suradi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

So'nggi yillarda jahon miqyosida yuridik ta'lim tizimi intensiv raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Bunda sud-huquq tizimi, advokatura sohasi va davlat-huquqiy xizmatlarida LegalTech vositalarining qo'llanilishi huquqshunoslar uchun yangi kasbiy kompetensiyalarni talab qilmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yuridik ta'limni modernizatsiya qilishda raqamli huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish — dolzarb ehtiyojga aylangan.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ham bu borada tegishli siyosiy yo'nalishlar belgilanganligini tasdiqlaydi.

Xususan, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son Farmonda ilgari surilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim jarayoniga zamonaviy raqamli yondashuvlarni integratsiya qilish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Bu esa yuridik ta'limda ham raqamli kompetensiyalarni shakllantirish uchun islohotlar zarurligidan dalolat beradi. Ushbu strategiya doirasida amalga oshirilgan raqamli transformatsiya yutuqlari yuridik ta'limni modernizatsiya qilish va LegalTech kompetensiyalarini shakllantirish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki³:

1. Oliy ta'lim muassasalarini raqamlashtirish: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan hujjatlarni qog'oz shaklidan voz kechish va Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimini joriy etish orqali ta'lim muassasalari faoliyati avtomatlashtirilgan va boshqaruv samaradorligi sezilarli darajada oshirilgan. Bu esa talabalarning texnologik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay infratuzilma yaratadi.


2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha Prezident qarorlari yuridik ta'limda innovatsion yondashuvlarni integratsiya qilish imkoniyatini kengaytiradi. Bu, jumladan, interaktiv o'quv modullari va LegalTech vositalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

3. Raqamli savodxonlik va malaka oshirish: Oliy ta'lim va xalq ta'limi tizimida talabalar va o'qituvchilarni raqamli savodxonlik bo'yicha tayyorlash, treninglar va yangi o'quv dasturlarini joriy etish orqali ularning zamonaviy yuridik amaliyotga tayyorgarligi kuchaymoqda.

4. Elektron xizmatlar va infratuzilma: Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, IT Parklar va "ENTERPRISE UZBEKISTAN" xalqaro markazi kabi loyihalar raqamli texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish va talabalarni real tizimlar bilan tanishtirish imkonini beradi.

³ O'zbekistonda raqamli transformatsiya: kelajakni istiqbollari 06.04.2024 Islambek Rustambekov Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b., yu.f.d., professor <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-raqamli-transformatsiya-kelajakni-istiqbollari>

Yuridik fakultetlarda AI/LegalTech kurslari integratsiyasi (2025)



Shu tarzda, O'zbekistonning raqamli transformatsiya bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlari yuridik ta'limni modernizatsiya qilish, bitiruvchilarda zamonaviy LegalTech ko'nikmalarini shakllantirish va oliy ta'limning boshqaruv tizimini avtomatlashtirish yo'nalishida aniq natijalarni ko'rsatmoqda.

Amerika Yuristlar Assotsiatsiyasi (ABA) va ABA Sun'iy Intellekt va Yuridik Ta'lim bo'yicha Ishchi Guruhi tomonidan e'lon qilingan Sun'iy Intellekt va Yuridik Ta'lim so'rovnomasiga ko'ra⁴, yuridik maktablar o'z o'quv dasturlariga sun'iy intellektni tobora ko'proq kiritmoqda. So'rovnoma natijalari yuridik ta'limda AI va LegalTech kurslarini integratsiyalash jarayonining tez sur'atda rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. 2025-yil holatiga ko'ra, yuridik fakultetlarning taxminan 55% da AI/LegalTech kurslari mavjud, bu esa diagrammada ko'rsatilganidek, talabalar uchun sun'iy intellekt va yuridik texnologiyalar bo'yicha maxsus ta'lim imkoniyatlari mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga, 45% fakultetlarda bunday kurslar mavjud emas, bu esa yuridik ta'lim tizimida hali ham raqamli transformatsiya bo'yicha izlanish va rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Global Legal Technology (LegalTech) bozori 2022-yilda 24,62 milliard AQSh dollariga baholangan bo'lib, 2032-yilga kelib 56,70 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa yillik o'rtacha 8,7% o'sish sur'ati (CAGR)⁵ bilan o'sishni anglatadi. Ushbu o'sish global miqyosda yuridik xizmatlar va huquqiy texnologiyalarga bo'lgan talabning keskin ortishini aks ettiradi. Ushbu jadal o'sish LegalTech sohasidagi innovatsiyalar va raqamli transformatsiyaning yuridik amaliyot va ta'lim tizimiga bevosita ta'sir qilayotganini ko'rsatadi.

⁴ Survey Suggests Trend Toward Use of AI in Legal Education

https://www.americanbar.org/content/dam/aba/administrative/office_president/task-force-on-law-and-artificial-intelligence/2024-ai-legal-ed-survey.pdf


⁵ <https://www.globenewswire.com/news-release/2023/09/01/2735982/0/en/Global-Legal-Technology-Market-Size-To-Worth-USD-56-7-Billion-By-2032-CAGR-of-8-7.html>

Global LegalTech bozorining tez o'sishi va yuridik fakultetlarda AI/LegalTech kurslarining tarqalishi bilan birga, amaliyotda ham yuristlar texnologiyaga katta e'tibor bermoqda. 2025-yilgi ABA so'roviga ko'ra⁶, firmalarning 73 % i bulutga asoslangan huquqiy vositalardan foydalanmoqda — bu hujjat boshqaruvi va amaliyot boshqaruvi dasturlarida ayniqsa keng tarqalganlikni ko'rsatadi.

So'rovnomalarga muvofiq, taxminan 35 % yuristlar yoki huquqiy firmalar sun'iy intellektga asoslangan huquqiy tahlil platformalaridan ma'lum darajada foydalanmoqda. Bu raqamlar yuridik ta'lim va real amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yanada kuchaytiradi: fakultetlarda AI / LegalTech kurslari joriy qilinganda, talabalar kelajakda bulutli vositalar va AI tahlil platformalariga tayyor holda kirib, amaliyotda texnologiyani tezroq qabul qiladigan yuristlar bo'lish ehtimoli yuqori.

Global LegalTech Market

2022 vs. 2032 (USD billions)



Raqamli transformatsiya nafaqat o'quv jarayonini, balki yuridik amaliyotni ham tubdan o'zgartirmoqda. Fakultetlarda AI va LegalTech kurslarini joriy etish orqali talabalar kelajakda texnologik jihatdan tayyor bo'lishadi, bu esa ish bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

Global LegalTech bozorining jadal o'sishi va yuristlarning texnologiyalarga yuqori qabul qilish darajasi (73 % bulutli vositalar, 35 % AI tahlil platformalari) ta'lim tizimi uchun yangi standartlarni belgilaydi: o'quv dasturlari nafaqat nazariy bilim, balki real amaliyotga tayyorlovchi ko'nikmalarni ham egallashi lozim.

Raqamli O'zbekiston–2030 strategiyasi doirasida davlat darajasida qo'llab-quvvatlanayotgan infratuzilma va innovatsion yondashuvlar, ta'lim va amaliyot o'rtasidagi integratsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

⁶ ABA releases new survey on legal tech trends <https://www.americanbar.org/news/abanews/aba-news-archives/2025/03/aba-survey-on-legal-tech-trends/>

Bu esa milliy va global tendensiyalarni uyg'unlashtirish, yuridik ta'limni zamonaviy ish sharoitlariga moslashtirish va bitiruvchilarni texnologik jihatdan tayyorlash imkonini beradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya va LegalTech kompetensiyalarini shakllantirish strategik yo'nalish sifatida nafaqat talabalar va o'qituvchilar, balki butun yuridik ekotizim uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning raqamli transformatsiya bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlari, global bozor o'sishi va yuristlarning texnologiyalarga faol qabul qilishi, yuridik ta'limni modernizatsiya qilish, LegalTech ko'nikmalarini shakllantirish va oliy ta'limning boshqaruv tizimini avtomatlashtirishda aniq natijalarni ko'rsatmoqda.

Fakultetlarda AI/LegalTech kurslarini kengaytirish orqali talabalar kelajakda zamonaviy huquqiy amaliyotga tayyor, texnologiyani samarali qo'llay oladigan yuristlar bo'lib yetishadi. Shu bilan birga, Raqamli O'zbekiston-2030 strategiyasi doirasidagi davlat darajasidagi qo'llab-quvvatlash milliy va global tendensiyalarni uyg'unlashtiradi va yuridik sohada raqamli transformatsiyaning strategik ahamiyatini mustahkamlaydi.

Muhokama

Raqamli transformatsiya yuridik ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda va bu jarayonda LegalTech kompetensiyalarini shakllantirish markaziy ahamiyatga ega bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, yuridik fakultetlarda AI va LegalTech kurslarining joriy etilishi nafaqat talabalarning texnologik savodxonligini oshiradi, balki ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Ushbu tendensiyaning nazariy va amaliy jihatlar bilan tushuntirish mumkin.

1. Yuridik ta'lim va raqamli transformatsiya: nazariy kontekst

Modern yuridik ta'lim tizimi, Anderson (2020)⁷ nazariyasiga ko'ra, nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga olishi lozim. Raqamli transformatsiya sharoitida yuridik fakultetlar quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

- Talabalarga sun'iy intellekt va LegalTech vositalari yordamida huquqiy muammolarni tahlil qilish ko'nikmalarini berish
- Sud va advokatura amaliyotida tez-tez uchraydigan ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tizimlarda boshqarish va tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish
- Yuridik jarayonlarni raqamli platformalar orqali samarali boshqarish bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantirish

Bu vazifalar **kompetensiya yondashuvi** (competency-based approach)⁸ tamoyili bilan uyg'unlashadi, ya'ni ta'limning natijasi — talabalar tomonidan amalda qo'llanadigan ko'nikmalar va kompetensiyalar sifatida o'lchanadi.

Natijalarni nazariy tahlil qilish

Natijalar shuni ko'rsatadiki: yuridik fakultetlarning 55 % da AI/LegalTech kurslari mavjud, 45 % da esa yo'q. Bu raqamlar raqamli transformatsiya jarayonida hali ham mavjud bo'lgan bo'shliq va rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

⁷ Anderson, T. (2020). Learning in the Digital Age
https://www.researchgate.net/publication/272942538_Learning_in_the_digital_age_How_are_the_ways_in_which_we_learn_changing_with_the_use_of_technologies

⁸ Kulik, A.A., Lazareva, P.V., Ippolitova, N.V., Egorova, A.E., Nedorezova, O.Yu. (2020). Competency-based approach and competencies in higher education: a theoretical review. Page-3
<https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1271649.pdf>

Nazariy jihatdan, bu o'quv dasturlarining diffuziya modeli (diffusion of innovation, Rogers, 2003) orqali texnologiyalarni qabul qilish jarayonining turli bosqichlarini aks ettiradi.

Shu bilan birga, global LegalTech bozorining 24,62 milliard dollardan 56,7 milliard dollarga o'sishi, yillik 8,7 % CAGR bilan rivojlanishi ta'lim tizimiga yangi standartlar qo'yadi.

Bu talab va taklif nazariyasi (supply and demand theory)⁹ bilan izohlanadi: yuridik ta'lim bozorida talab ortishi, raqamli kompetensiyalarni shakllantirishni majburiy qiladi.

Xalqaro tajriba

AQSh: Harvard va Stanford universitetlarida "Law & Technology"¹⁰ va "Cyberlaw" dasturlari ishlab chiqilgan. Talabalar huquq sohasida sun'iy intellekt, big data va onlayn huquqiy xizmatlar bilan ishlashni o'rganadilar. Bu yondashuv global yuridik amaliyotda talab qilinadigan kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi va O'zbekiston kabi mamlakatlarda ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish uchun namuna bo'la oladi.

Buyuk Britaniya: LegalTech startaplari, masalan, Luminance va Ravn Systems, yuridik hujjatlarni avtomatik tahlil qilishda qo'llanadi. Natijada yuridik xizmatlar ko'rsatish tezligi 40 % gacha oshgan. Bu esa talabalarga amaliyotga yo'naltirilgan ko'nikmalarni o'rgatish va fakultetlarda AI/LegalTech integratsiyasini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Estoniya: Butun sud tizimi to'liq raqamlashtirilgan; 95 % hujjatlar onlayn tarzda yuritiladi. Sud qarorlari, arizalar va apellyatsiyalar maxsus platforma orqali yuboriladi. Estoniya "raqamli davlat" modeli bilan tanilgan bo'lib, talabalarga raqamli sud tizimi sharoitida ishlash bo'yicha amaliy tajriba beradi.¹¹

Singapur: "TechLaw Fest"¹² nomli yirik xalqaro forum har yili o'tkaziladi, unda dunyoning eng yirik yuridik kompaniyalari LegalTech innovatsiyalarini taqdim etadi. Sudlarda "e-litigation" tizimi to'liq joriy qilingan. Bu tajriba yuridik ta'limda innovatsion o'quv metodlarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Xitoy: 2017-yildan boshlab "Internet Courts"¹³ tizimi joriy etilgan. Pekin, Guanchjou va Xanchjou shaharlaridagi sudlarda ishlarning 95 % dan ortig'i raqamli shaklda ko'riladi, sudylar sun'iy intellekt yordamida hujjatlarni tahlil qiladi. Shuningdek, Xitoy universitetlarida, xususan Pekin universiteti yuridik fakultetida "Legal Informatics" va "AI in Law" fanlari o'qitiladi.

2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyda 200 dan ortiq LegalTech kompaniyasi faoliyat yuritmoqda (Legal Miner, BestOne AI va boshqalar).

Xalqaro tajriba tahlili: Ushbu tajribalar O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun quyidagi xulosalarni beradi:

• **Talabalar amaliyotga tayyor bo'lishi:** AI va LegalTech kompetensiyalari nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

⁹ Law of Supply and Demand in Economics: How It Works

By [Jason Fernando](https://www.investopedia.com/terms/l/law-of-supply-demand.asp#:~:text=The%20law%20of%20demand%20holds,ones%20tend%20to%20diminish%20it.) June 17, 2025 <https://www.investopedia.com/terms/l/law-of-supply-demand.asp#:~:text=The%20law%20of%20demand%20holds,ones%20tend%20to%20diminish%20it.>

¹⁰ <https://hls.harvard.edu/academics/programs-of-study/law-science-and-technology-program-of-study/>

¹¹ https://e-justice.europa.eu/topics/court-procedures/civil-cases/online-processing-cases-and-e-communication-courts/ee_en

¹² <https://sal.org.sg/articles/welcome-remarks-by-the-honourable-justice-aidan-xu-at-techlaw-fest-2025>

¹³ https://english.court.gov.cn/2021-04/20/c_768157.htm

• **Raqamli sud tizimi:** Estoniya va Xitoy tajribasi raqamli sud tizimlariga tayyor mutaxassislarini tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

• **Innovatsion metodologiyalarni integratsiya qilish:** Singapur va AQSh tajribasi yuridik ta'limda interaktiv modul, laboratoriya va startap bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

• **Global talab va kompetensiya uyg'unligi:** Buyuk Britaniya va Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuridik xizmatlar tezligi va sifati AI va LegalTech vositalarini o'zlashtirgan mutaxassislar soniga bog'liq.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, LegalTech kompetensiyalarini shakllantirish yuridik ta'limning samaradorligini oshiradi, bitiruvchilarning ish bozorida raqobatbardoshligini kuchaytiradi va yuridik xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Strategik nuqtai nazardan, "Raqamli O'zbekiston-2030" loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan infratuzilma va elektron xizmatlar talabalarga real ish sharoitlarini oldindan sinab ko'rish imkonini beradi, bu esa ta'lim va amaliyotni uyg'unlashtiradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot yuridik ta'limni raqamli transformatsiya sharoitida modernizatsiya qilish va LegalTech kompetensiyalarini shakllantirish masalasini ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, global va mahalliy miqyosda yuridik ta'lim tizimi jadal raqamlashtirish jarayonidan o'tmoqda, bu esa yangi texnologik va kasbiy kompetensiyalarni talab qiladi.

Aniqlangan asosiy muammolar: yuridik fakultetlarning barcha o'quv dasturlarida AI va LegalTech kurslari yetarlicha joriy etilmaganligi, o'quv dasturlari va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning zaifligi, shuningdek, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha metodik va infratuzilma resurslarining cheklanganligi.

Xorijiy tajribalar (AQSh, Buyuk Britaniya, Estoniya, Singapur, Xitoy) shuni ko'rsatadiki, yuridik ta'limni muvaffaqiyatli modernizatsiya qilish uchun AI va LegalTech kurslarini fakultetlarda keng joriy etish, raqamli sud tizimi va elektron platformalarda amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish, shuningdek, startaplar va xalqaro laboratoriyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish samarali hisoblanadi.

Takliflar:

Raqamli kompetensiyalar sertifikatitsiyasi: Huquqshunoslar uchun doimiy "Raqamli kompetensiyalar sertifikatitsiyasi" tizimini joriy etish, bu ularning malakasini xalqaro standartlarga mos ravishda oshirishga va bitiruvchilarni ish bozorida raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi.

Xalqaro hamkorlik: Talabalarni xorijiy sud tizimi, LegalTech kompaniyalari va xalqaro laboratoriyalar bilan hamkorlikda amaliyotga yo'naltirish, global tajribani milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish. Bu yondashuv talabalarning texnologik, strategik va etika jihatdan tayyor bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya va LegalTech kompetensiyalarini shakllantirish strategik yo'nalish sifatida yuridik ta'lim tizimi va butun yuridik tizimning samaradorligini oshiradi.

Fakultetlarda AI/LegalTech kurslarini kengaytirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali bitiruvchilar real ish sharoitlariga tayyor, texnologiyani samarali qoʻllay oladigan yuristlar sifatida yetishadi.

Hozirgi XXI asrda shuni unutmash kerakki, zamonaviy yurist texnologiyalarni tushunadigan, sunʼiy intellekt, maʼlumotlar bazalari va onlayn huquqiy tizimlardan foydalana oladigan mutaxassis boʻlishi lozim. Bu esa albatta, huquqiy tizimni yanada shaffof, tezkor va samarali qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Pokhariyal, P. (2023). *Legal Tech Education in Digital Age: Prospects and Challenges*. Uzbek Journal of Law and Digital Policy
https://www.researchgate.net/publication/382834539_Legal_Tech_Education_in_Digital_Age_Prospects_and_Challenges
2. Yuliya Kharitonova, Larisa Sannikova. Digital Transformation Of Legal Education
<https://doi.org/10.18690/mls.15.1.47-72.2022>
3. Xoliqulovna J.H. The Technology of Developing Legal Competence of Students in the Process of Teaching Law // *E-International Journal of Pedagogy*.— 2025 [file:///C:/Users/user/Downloads/10_45-47_EIJP_The+Technology+of+Developing%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/10_45-47_EIJP_The+Technology+of+Developing%20(1).pdf)
4. Islambek Rustambekov. Oʻzbekistonda raqamli transformatsiya: kelajakni istiqbollari. 2024 <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-raqamli-transformatsiya-kelajakni-istiqbollari>
5. Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
6. Survey Suggests Trend Toward Use of AI in Legal Education
https://www.americanbar.org/content/dam/aba/administrative/office_president/task-force-on-law-and-artificial-intelligence/2024-ai-legal-ed-survey.pdf
7. ABA releases new survey on legal tech trends
<https://www.americanbar.org/news/abanews/aba-news-archives/2025/03/aba-survey-on-legal-tech-trends/>
8. Kulik, A.A., Lazareva, P.V., Ippolitova, N.V., Egorova, A.E., Nedorezova, O.Yu. (2020). Competency-based approach and competencies in higher education: a theoretical review. Page-3 <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1271649.pdf>
9. Law of Supply and Demand in Economics: How It Works By [Jason Fernando](#) June 17, 2025
<https://www.investopedia.com/terms/l/law-of-supplydemand.asp#:~:text=The%20law%20of%20demand%20holds,ones%20tend%20to%20diminish%20it.>
10. Law, Science, and Technology Program of Study
<https://hls.harvard.edu/academics/programs-of-study/law-science-and-technology-program-of-study/>
11. TechLaw.Fest 2025 <https://sal.org.sg/articles/welcome-remarks-by-the-honourable-justice-aidan-xu-at-techlaw-fest-2025>